



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
QIZILTEPA TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

Qiziltepa tumani, O'zbekiston ko'chasi, 43-uy, tel.: (998 79) 210-09-15

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi
Shartnoma
2. Loyihaning nomi
Qiziltepa tuman tibbiyot birlashmasi hamda "Yangi asr" FX o'rtasida tuzilgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot
Qiziltepa tuman tibbiyot birlashmasi. 27.01.2022 y.
4. Mas'ul ijrochi

Qiziltepa tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga 2022-yilning 27-yanvar kuni "**E-Huquqshunos**" elektron tizimi orqali Qiziltepa tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan tuzilayotgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi loyihasi ekspertizadan o'tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan. Shartnomani o'rganish davomida quyidagilar aniqlandi:

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida mahsulot yetkazib berish shartnomasi tuzish va uning tartibi keltirilgan. Fuqarolik kodeksining 437-moddasida mahsulot yetkazib berish shartnomasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan mahsulot yetkazib beruvchi — sotuvchi shartlashilgan muddatda yoki muddatlarda o'zi ishlab chiqaradigan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchiga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun yoki shaxsiy, oilaviy maqsadlarda, ro'zg'orda va shunga o'xshash boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladi.

O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 32-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi